



CHANGES IN THE SOCIAL AND CULTURAL LIFE OF THE OASIS POPULATION (THE EXAMPLE OF KASHKADARYA, 1964-1985)

Nurbek Azizov

Independent researcher

nazizov106@gmail.com

Science ID: MQD-0826-0213

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Kashkadarya, social life, social security of the population, cultural institutions, healthcare, public education, recreation areas.

Received: 18.08.26

Accepted: 19.08.26

Published: 20.08.26

Abstract: The article describes the social and cultural life of the population of the Kashkadarya region of the Uzbek SSR in 1964-1985. During this period, changes in the life of the population in the region, processes that occurred in the social life of the population, the results achieved in the cultivation of agricultural products, as well as the state of health care and public education, were studied in detail. As a result of the beginning of the development of the Karshi steppe, the living conditions of the population improved to a certain extent. Many residential buildings and cultural and household facilities were built and put into operation in the regions. These processes are analyzed in detail in this article.

VOHA AHOLISINING IJTIMOYIY VA MADANIY HAYOTIDAGI O'ZGARISHLAR (QASHQADARYO MISOLIDA, 1964-1985 YILLAR)

Nurbek Azizov

Mustaqil tadqiqotchi

nazizov106@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: MQD-0826-0213

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qashqadaryo, ijtimoiy hayot, aholining ijtimoiy ta'minoti, madaniy

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston SSR tarkibidagi Qashqadaryo viloyati aholisining 1964-1985 yillardagi aholining

muassasalar, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, dam olish maskanlari.

ijtimoiy va madaniy hayoti tasvirlangan. Bu davrda viloyatda aholi turmushidagi o'zgarishlar, aholining ijtimoiy hayotida sodir bo'lgan jarayonlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda qanday natijalarga erishganligi, bundan tashqari sog'liqni saqlash va xalq ta'limi, holatlari atroflicha tadqiq etilgan. Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi boshlanishi natijasida aholi yashash sharoiti ma'lum darajada yaxshilangan. Hududlarda ko'plab turar-joy binolari, aholiga madaniy-maishiy maskanlar qurib foydalanishga topshirilgan. Ushbu maqolada aynan shu jarayonlar atroflicha tahlil qilingan.

ИЗМЕНЕНИЯ В СОЦИАЛЬНОЙ И КУЛЬТУРНОЙ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ ОАЗИСА (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИ, 1964-1985 ГГ.)

Нурбек Азизов

Независимый исследователь

nazizov106@gmail.com

Научный идентификационный номер: MQD-0826-0213

Ташкент Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Кашкадарья, социальная жизнь, социальное обеспечение населения, культурные учреждения, здравоохранение, народное образование, зоны отдыха.

Аннотация: В статье описывается социально-культурная жизнь населения Кашкадарьинской области Узбекской ССР в 1964-1985 годах. В этот период подробно изучены изменения в жизни населения региона, процессы, происходившие в социальной жизни населения, результаты, достигнутые в выращивании сельскохозяйственной продукции, а также состояние здравоохранения и народного образования. В результате начала освоения Каршиской степи условия жизни населения в определенной степени улучшились. В регионе было построено и введено в эксплуатацию множество жилых домов, объектов культуры и быта. Эти процессы подробно анализируются в данной статье.

Kirish. 1964–1985-yillarda Qashqadaryo vohasida kechgan ijtimoiy va madaniy jarayonlar hudud aholisining hayot tarzi, ma'naviy dunyoqarashi hamda jamoaviy munosabatlarida muayyan o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Mazkur davrda ta'lim, sog'liqni saqlash,

madaniyat va maishiy xizmat ko'rsatish tizimlarining kengayishi, kutubxona, klub, madaniyat uyi, kino va boshqa ijtimoiy-madaniy muassasalar faoliyatining rivojlanishi aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini oshirdi.

Metodologik asoslar. Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida tarixiy-tahliliy, qiyosiy, statistik va tizimli yondashuv metodlaridan keng foydalanildi. Asosiy metodologik yondashuv sifatida tarixiylik va izchillik tamoyillari asos qilib olindi. Bu esa o'rganilayotgan ijtimoiy jarayonlarning rivojlanish dinamikasi ochib berish va tahlil qilish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Turmush inson hayotining asosiy aspektidir. Kishilarning turli-tuman o'zaro aloqalari, mehnat faoliyatlarining mazmuni, turmush tarzi, xulq-atvor belgilari, an'ana va rasm-rusmlarga, mehnatga bo'lgan munosabatlari ana shu so'z zahirida mujassamlashgan. Turmush madaniyatining keng ko'lamda o'sib borishi esa ijtimoiy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ayniqsa, qishloqda mehnat qilayotgan kishilarning turmush madaniyati darajasini oshirish, turmush farovonligini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar KPSS XXVI syezdi qarorlarida aniq ifodalangan. Turmush darajasini oshirish deganda, uni ba'zan oddiy talqin etib, aholi daromadlarining va iste'mol buyumlari ishlab chiqarishning o'sishinigina nazarda tutishadi, xolos. Haqiqatda esa turmush darajasi tushunchasi ancha keng va boy tushunchadir. Kishilarning ongliligi va madaniyatini, shu jumladan turmush madaniyati, xulq-atvorni doimiy o'stirish ham va aytish mumkinki, oqilona iste'mol madaniyati ham turmush madaniyati tushunchasiga kiradi. Oblastda ijtimoiy va madaniy hayotda o'zgarishlar amalga oshirilishida Qarshi cho'lini o'zlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Qarshi cho'li zaminining tabiiy gazi respublikaning sanoat korxonalarini va turar-joy binolariga yetkazib berildi. 1966-yilda oblastda Muborak-Zirabuloq gazprovodi foydalanishga topshirildi. Yuqori bosimli Qoraxitoy-Qarshi gazprovodi qurilishi tugallandi. Oblastda 61300 kvadrat metrdan ortiq uy-joy, 1524 o'rinli 2 ta maktab 650 o'rinli 4 ta bolalar bog'chasi va boshqa ko'pgina obyektlar foydalanishga topshirildi. Navoiy GRESining elektr energiyasi Qarshi shahriga keltirildi. Yuqori voltli elektr uzatuvchi liniya Shahrisabzga borib yetdi. Qishloq joylarida qurilish keng hajmlarda olib borilgan. Sovxozlarda kapital qurilishi hajmi 12.9 million so'mga, kolxozlarda esa 6,5 million so'mga yetdi. Oblast kolxoz va sovxozlarida bir yil davomida 53 kilometrdan ortiq vodoprovod shoxobchalari barpo etildi. 89 kilometrlik magistral kanal betonlashtirildi. 90 kilometr uzunlikda elektr uzatgich limiyasi qurildi. 3 ming gektar miqdorida yangi yer o'zlashtirildi. 30 ming 200 kvadrat metr maydoni foydalanishga topshirildi; 79,5 kilometr yo'l qurildi. Qarshi cho'lini o'zlashtirish jarayonida Nishon, Talimarjon hamda sobiq Bahoriston, Usmon Yusupov nomli (hozirgi vaqtda keyingi ikki tuman birlashtirilgan bo'lib,

Mirishkor tumani deb nomlangan) tumanlari barpo etildi. Mazkur tumanlar hududlarida yangi davlat xo'jaliklari tuzilib, ularning markazlarida shiyponlar, ishchilar uchun beton uylar, maktablar bolalar bog'chalari, madaniy, maishiy hamda xizmat ko'rsatish shoxobchalari qurilishi boshlab yuborilgan. Bu qurilishlarda, Qarshi cho'lini o'zlashtirishda Ko'chkak qishlog'i ahlining, qishloqdan yetishib chiqqan yosh mutaxassislarning ham hissasi kata bo'lgan. Oliy o'quv yurtlarini bitirib mutaxassisslar, qishloq yoshlari "Qarshiqurilish" boshqarmasining korxona va tashkilotlarida turli lavozimlarda vijdonan mehnat qilgan. Oddiy ishchlar yoki texnik mutaxassisslar sifatida ko'plab ko'chkakliklar namunali mehnatlari bilan jamoalarida obro'-e'tibor qozonib ishlagan.

Qashqadaryo oblastida mavjud rayonlardagi aholining turmush-sharoiti, madaniy-musassalar holati doim ham talabga javob bermagan. Rayonlarda aholi bir qancha qulayliklardan ham foydalangan. Jumladan, Dehqonobod rayonida ham partiya, sovet, kasaba soyuz va komsomol tashkilotlari rahbarligida mehnatkashlar turmush madaniyatini yuksaltirishga katta e'tibor berilgan. Aholi turmush farovonligini oshirishda muhim omillardan hisoblangan savdo, meditsina, aloqa va maishiy xizmat ko'rsatish ishlari barcha turlari yaxshilangan. Rayonda 1983-yilga kelib 83 ta magazin, 12 ta umumiy ovqatlanish korxonasi, 5 ta avtolavka, 24 ta kutubxona, 6 ta shifoxona, 8 ta dorixona, 2 ta kinoteatr, "Tog' go'zali" ashula va raqs xalq ansambli, madaniyat uyi, 17 ta aloqa bo'limi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish kombinati faoliyat ko'rsatgan. Bu davrda barcha xonadonlarda radiopriyomniklar mavjud bo'lgan. Rayonda 600 oila telefonlashtirilgan. Bundan tashqari besh ming xonadon esa "zangori olov" xizmatidan foydalangan. Har yili barcha qulayliklarga ega bo'lgan ko'plab muhtasham uy-joylar, madaniy-maishiy muassasalar qurilib, qishloqlar zamonaviy, ko'rkam posyolkalarga aylantirilgan. Aholi tomonidan yangicha urf-odatlar, marosimlar keng o'zlashtirilyapti. Mehnatkashlar turmush madaniyatini oshirishda rayondagi "Leninizm" sovxози markazi bo'lgan Oqirtma qishlog'i bosh reja asosida qayta qurilgan. Sovxozdagi 250 ga yaqin oilada esa televizor va radio bo'lib, 72 xonadon telefonlashtirilgan. Xo'jalikda bitta klub, 3 ta kutubxona, 25 o'rinli kasalxona, apteka, medpunkt, sataroshxona, ishchilar oshxonasi, mehmonxona, 100 tochkali avtomat telefon stantsiyasi, 2 ta aloqa bo'limi, 4 ta kundalik ehtiyoj mollari magazini, ko'chma kinoustanovka, 40 o'rinli bolalar bog'chasi va 2 ta umumta'lim maktabi mavjud bo'lgan. 1982-yilda xo'jalikda "Oqirtma — Xo'japullas" marshruti bo'yicha yangi ravon yo'l qurilgan. Bundan tashqari Zog'cha yayloviga 22 kilometrlik masofadan vodoprovod orqali chuchuk suv keltirilgan. Biroq Krupskaya nomli sovxozda madaniyat bo'limiga qarashli 5 ta klub, kutubxonalar ishi talabga javob bermaydi. Negaki, mavjud madaniy muassasalar kerakli zamonaviy inventarlar bilan to'liq ta'minlanmagan. Klub va kutubxona ishlariga malakali va mutaxassis kishilar jalb etilmagan. Natijada bir necha

kunlab klub va kutubxonalarning yopiq turish hollari sodir bo'lgan. Rayondagi Krupskaya nomli, "Sho'rguzar" va Hamid Olimjon nomli sovxozlarda esa chorvador-u g'allakorlarning ishdan so'ng madaniy hordiq chiqarishlari uchun sharoit yaratilmagan. Shuningdek, Duob, Qo'rg'ontosh qishloq Sovetlarida ham qishloqda turmush madaniyatini yuksaltirish uchun hal etilmagan qator yumushlar mavjud bo'lgan. Bunday nuqsonlar oblastdagi barcha rayonlarda mavjud bo'lgan. Qishloq joylarda aholining asosiy qismi madaniy dam olish maskanlarida qiyinchiliklarga duch kelishgan.

Qashqadaryo oblastida o'quvchilarning bilim olishi uchun maktab internatlar ham tashkil etilgan. Oblastidagi maktab internatda 1757 nafardan ortiq bola ta'lim olgan. Jumladan, Dehqonobodda 172 nafar, Qamashida 409 nafar, Yakkabog'da 323 nafar, Shahrisabz 1-sonda 419 nafar, va 2-sonda 430 nafar. 1971-yilda Qashqadaryo oblastidagi maktab-internatlar uchun 1 184,2 ming rubl miqdorida byudjet mablag'lari ajratildi, oblast ta'lim boshqarmasi 1167 ming rublni, ya'ni 98,5% ni moliyalashtirdi, ya'ni yil davomida alohida maktablar uchun byudjet mablag'lari o'zgartirildi, ba'zilar uchun mablag' oshirildi, boshqalari uchun esa kamaytirildi, natijada alohida maktablar 17 ming rublga yetarlicha moliyalashtirilmadi, 1971-yil uchun haqiqiy xarajatlar 1176,7 ming rublni yoki 99,5% ni tashkil etdi. Ta'lim sohasida ajratilgan mablag'lar oshsada, tizim hukmron mafkuradan holi bo'lmagan. Bu jarayon esa ta'lim sifatining tushishiga sabab bo'lgan. Bunday holat boshqa rayonlarda ham kuzatilgan. Xususan, 1981-yilga kelib Nishon rayonida xalq maorifini rivojlantirishga e'tibor berilgan. Bu davrda mavjud 14 ta maktablarda cho'lquvarlarning 8120 dan ortiq bolalari ta'lim-tarbiya olgan. Rayonda bitta sovxoz-texnikum va bitta qishloq hunar-texnika bilim yurti faoliyat ko'rsatgan.

Nishon rayonida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va davlatga sotish rejasi oshirib bajarilgan. Paxtakorlar qabul punktlariga 45700 tonna "oq oltin" yetkazib bergan. G'allakorlar rejadagi 6224 tonna o'rniga 8214 tonna don tayyorlagan. Buning 2006 tonnasini makkajo'xori doni tashkil etgan. Shuningdek, rayon mehnatkashlari davlatga zarbdor yilda 120 tonna kartoshka, 2967 tonna poliz, 4308 tonna sabzavot mahsulotlari, 125 ming tonna ho'l meva, 70 tonna uzum yetkazib bergan. Chorvadorlar esa 1904 tonna go'sht, 1970 tonna sut, 1556 ming dona tuxum, 59380 dona qorako'l teri, 4305 sentner jun, 481 sentner pilla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlab, xalq xo'jaligi rejalarini oshirib bajargan. Bu davrda chorvadorlar har yuz bosh sovliqdan 156 tadan qo'zi, har bosh qo'ydan 3 kilogrammdan jun, har sog'in sigirdan 3000 litrdan sut, har bir tovuqdan 152 donadan tuxum olishgan. Bir yilda ikki yarim yilga yetadigan dag'al-xashak jamg'arilgan. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish darajasi oshirilgan. Rayon maishiy xizmat ko'rsatish kombinati jamoasi, yillik rejani 101 foizga, matlubot jamiyati xodimlari tovar oboroti va sanoat mahsulotlarini realizatsiya qilish rejalarini 100 foizga bajargan.

Oblastda sogʻliqni saqlash tizimiga ham eʼtibor qaratila boshlangan. 1984-yilda Chiroqchi rayoni mahalliy budjetidan sogʻliqni saqlash tizimi uchun 1984-yilda 2 mln 310 ming soʻm ajratilgan. Rayonda bu paytda 140 nafar vrach, 428 nafar oʻrta meditsina xodimlari xizmat qilgan. Chiroqchi shahrida 3 ta poliklinika, 7 ta shifoxona, ularda 11 ta laboratoriyalar, 10 ta boʻlim, shundan “Tez yordam” boʻlimi xizmat qilgan. Bunda tashqari birinchi kategoriyali sanitariya-epidemiologiya stansiyasi, sil bemorlari dispanseri, Optika-meditsina asboblari magazini faoliyat koʻrsatgan. Rayonda 38 ta joyda feldsher—akusherlik punktlari, 7 ta joyda vrachlik ambulatoriyalari, Qalqama, Uyshun qishloq shifoxonalari, 6 ta joyda dorixonalar xalq salomatligi yoʻlida xizmat qilgan. Rayondagi Leningrad qishloq sovetiga qarashli “Oʻzbekiston” feldsher-akusherlik punkti 38 ming aholiga meditsina xizmatini koʻrsatgan. Shundan 14 yoshgacha boʻlgan bolalar, 560 nafari xotin-qizlarni tashkil etgan. Punktga 14 yoshgacha boʻlgan bolalar doimo har-xil yuqumli kasalliklarga qarshi oʻz vaqtida emlanib turilganligi sababli ular oʻrtasida kasallik kamaygan. Ulyanov rayoniga qarashli Chandir qishloq sovetida 1970-1976 yillarda madaniy hayotida ham sezilarli siljishlar sodir boʻldi. 1969 yilning iyulida Samarqand tibbiyot oliygohini bitirib kelgan Xalil Jalilov Chandirda ochilgan kasalxonaning ishini toʻgʻri yoʻlga qoʻydi. 1970-yilda 25 oʻrinli, yangi kasalxona qurib ishga tushirildi. 1971-yilda kasalxonada bir vrach 7 oʻrta maxsus maʼlumotli tibbiy xodimlar chandir xalqi salomatligini mustahkamlash borasida tinimsiz xizmat qildilar. Ish toʻgʻri tashkil etilganligi uchun dizenteriya, qizamiq, qorin tifi, koʻk yoʻtal kabi kasalliklar 2-3 baravar kamaydi. 1971-yil boshida Jeynovdagi 25 oʻrinli kasalxona yopilib, uning 10 oʻrni Chandir kasalxonasiga olib berildi. 1972-yilda kasalxonaga televizor, xolodilniklar olinib, bemorlarga madaniy xizmat saviyasi qisman yaxshilandi.

Xulosa. Qashqadaryo vohasida 1964–1985-yillarda aholining ijtimoiy va madaniy hayotida muayyan ijobiy oʻzgarishlar yuz berdi. Qarshi choʻlini oʻzlashtirish jarayoni yangi aholi punktlari, uy-joylar, maktablar, maktab-internatlar, bolalar bogʻchalari, tibbiyot va madaniyat muassasalari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining barpo etilishiga xizmat qildi hamda aholining turmush sharoitini qisman yaxshiladi. Shu bilan birga, qishloq hududlarida madaniy-maishiy xizmatlar sifati, malakali mutaxassislar yetishmasligi, infratuzilmaning notekis rivojlanishi va taʼlim tizimining mafkuraviy bosim ostida faoliyat yuritishi kabi muammolar saqlanib qoldi. Binobarin, mazkur davrdagi ijtimoiy-madaniy taraqqiyot bir tomondan moddiy infratuzilmaning kengayishi bilan tavsiflansa, ikkinchi tomondan sovet maʼmuriy-buyruqbozlik tizimining mafkuraviy cheklovlari va hududlar oʻrtasidagi rivojlanish nomutanosibligi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- 1.Oblast sovetining toʻqqizinchi sessiyasi. Qashqadaryo haqiqati 1967-yil 14-iyul

- 2.Sharipov,Ya. Ko'chkak o'tmishidan lavhalar.Qarshi: 2019 yil B-42
- 3.Hayot ziynati, Lenin yo'lidan.1983-yil 28-iyun № 77, b-2
- 4.Qashqadaryo VDA. 133-fond, 1-ro'yxat, 1418-yig'ma jild, 16-varaq.
- 5.Qashqadaryo VDA. 133-fond, 1-ro'yxat, 1418-yig'ma jild, 19-varaq.
- 6.Yangi zafarlar sari, Mehnat bayrog'i, 1981-yil 17-dekabr.B-2
- 7.Yangi zafarlar sari, Mehnat bayrog'i, 1981-yil 17-dekabr.B-2
- 8.Xalq salomatligi yo'lida. Qashqadaryo haqiqati. 1984-yil 12-may № 57 B-2
- 9.Jo'raqulov.O. Chandir turkmanlari .Toshkent. 1992.B-155